



Boshlang'ich sinf o'quvchilar ongida lingvoranglar orqali tasavvuri va madaniy ongini rivojlantirishning ahamiyati

Abdullazizova Rohatoy Usmonaliyevna –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: rohatoyabdullazizova7@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-8257-1331>

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvoranglar orqali tasavvuri va madaniy ongini rivojlantirishning pedagogik ahamiyatiga bag'ishlangan. Lingvoranglar o'quvchilarning tilga asoslangan tasavvurini kengaytirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va madaniy merosni anglash qobiliyatini shakllantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Ishda lingvoranglarning turli pedagogik metodlar bilan uyg'unligi, tasavvur va madaniy ongni rivojlantirishdagi roli hamda boshlang'ich sinf ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, lingvoranglar, tasavvur, madaniy ong, ijodiy fikrlash, pedagogik ahamiyat, hayotiy ko'nikmalar, pedagogik tizim.

Значение развития воображения и культурного сознания младших школьников посредством лингворингов

Аннотация. Данная статья посвящена педагогической значимости развития воображения и культурного сознания младших школьников посредством лингворингов. Лингворинги признаются эффективным инструментом для расширения языково-основанного воображения учащихся, развития их творческого мышления и формирования способности к осмыслению культурного наследия. В статье анализируется сочетание лингворингов с различными педагогическими методами, их роль в развитии воображения и культурного сознания, а также возможности применения в образовательном процессе начальной школы.

Ключевые слова: начальная школа, лингворинги, воображение, культурное сознание, творческое мышление, педагогическая значимость, жизненные навыки, педагогическая система.

The importance of developing imagination and cultural awareness in primary school students through lingvorangs

Annotation. This article is devoted to the pedagogical significance of developing imagination and cultural awareness in primary school students through lingvorangs. Lingvorangs are recognized as an effective tool for expanding students' language-based imagination, fostering creative thinking, and developing the ability to comprehend cultural heritage. The study analyzes the integration of lingvorangs with various pedagogical methods, their role in enhancing imagination and cultural awareness, and the possibilities of their implementation in the primary school educational process.

Keywords: primary school, lingvorangs, imagination, cultural awareness, creative thinking, pedagogical significance, life skills, pedagogical system.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim jarayonini raqamlashtirish, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida, o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, til birliklarini ongli va tizimli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali lingvodidaktik muhit yaratish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlari ularning bilish jarayonida vizual idrok, rang, obraz va assotsiativ tafakkurning ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Shu bois til birliklarini, xususan rang ifodalovchi birliklarni o'qitishda an'anaviy yondashuvlardan ko'ra, kognitiv va raqamli imkoniyatlarga tayangan metodlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Rang ifodalovchi birliklar tilning leksik-semantik tizimida muhim o'rin tutib, nafaqat predmetning tashqi belgisini, balki emotsional, baholovchi va obrazli ma'nolarni ham ifodalaydi. Ularni semantik klasterlar asosida guruhlash o'quvchilarning lug'at boyligini tizimli ravishda kengaytirish, ma'no aloqalarini chuqurroq anglash hamda tafakkurda konseptual tuzilmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli lingvodidaktik muhitda rang birliklari asosidagi semantik klasterlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni rag'batlantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi rang ifodalovchi birliklar asosida shakllantirilgan semantik klasterlar bilan boyitilgan raqamli lingvodidaktik muhit metodlarini takomillashtirish hamda ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy va kognitiv rivojiga ta'sirini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasavvuri va madaniy ongini rivojlantirish masalasi pedagogika keng yoritilgan. Lingvoranglar – so'z va tasvir asosida tashkil etiladigan interaktiv pedagogik vositalar – o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, vizual va lingvistik tasavvurlarni, shuningdek, madaniy qadriyatlarni anglash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Lingvoranglar yordamida olib boriladigan pedagogik faoliyat nafaqat tafakkur va nutq rivojiga, balki shaxsiy ijodiy salohiyat va madaniy ongni chuqurroq shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy pedagogik manbalar esa lingvoranglarni boshlang'ich sinf o'quvchilarida

madaniy merosni o'zlashtirish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni anglash imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ko'rsatadi, mavjud adabiyotlar lingvoranglarning boshlang'ich ta'lim jarayonida tasavvur va ijodiy fikrlashni, shuningdek, madaniy ongini rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslangan holda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ular pedagogik amaliyotga tatbiq etishning samarali metodlarini aniqlashga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi; lingvosemantik tahlil rang ifodalovchi birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash va ularni ma'no yaqinligi asosida klasterlash; kognitiv yondashuv rang birliklarining o'quvchi tafakkurida konseptual model sifatida shakllanish jarayonini tahlil qilish; lingvodidaktik modellash tirish rang asosidagi semantik klasterlarga tayangan raqamli topshiriq va mashqlar tizimini ishlab chiqish; pedagogik kuzatuv va tajriba ishlab chiqilgan metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatidagi samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida boshlang'ich sinf ona tili darslari jarayoni, predmeti sifatida esa rang ifodalovchi birliklar asosida shakllantirilgan semantik klasterlardan foydalanilgan raqamli lingvodidaktik metodlar tanlandi. Raqamli muhit sifatida interaktiv taqdimotlar, rangli semantik xaritalar, raqamli kartochkalar, animatsiyalangan topshiriqlar va o'yin texnologiyalariga asoslangan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. O'quv predmetining mazmunini, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, ya'ni bilim berish, uni o'zlashtirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini qamrab oladi. Shunga ko'ra ona tili savodxonligi darslarida metodik vazifalar qatoriga o'quv predmeti sifatida ona tili savodxonligi mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini tadqiq qilish, zarur o'quv jihozlarini ishlab chiqish kiradi. Ona tili savodxonligi fanini o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, ularga asoslanib, o'qituvchi shu predmet bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin. Ona tili savodxonligi fanini o'qitish metodikasi o'qituvchining tayyorlanishidan tortib, o'quv materialini o'zlashtirish natijalarini, jumladan sinfdagi, uydagi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hisobga olishgacha barcha o'qitish jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'qitish amaliyotini har tomonlama o'rganish va natijalarni ijodiy ravishda umumlashtirish asosida o'qitishning muayyan qonuniyatlari belgilanadi va uni yana ham yaxshilash bo'yicha rejalar ishlab chiqiladi. Ona tili savodxonligi fani metodikasi o'rganadigan va ishlab chiqadigan mashqlar doirasiga quyidagilar kiradi: o'quv predmeti sifatida ona tili savodxonligi fanlarining ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati, uning tarbiya sistemasidagi o'rni, o'quv materialining mazmuni va uni taqsimlanish tizimi; o'qitish metodlari va ta'limni tashkil etish shakllari, o'quv materialini, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoni va o'qitish natijalarini hisobga olish; jixozlash va o'quv qurollaridan foydalanish; darsdan va sinfdan tashqari ishlar, o'qitishning moddiy bazasi. Ona tili savodxonligi fanini o'qitish metodikasi o'qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bilan o'zaro bog'lanishda va rivojlanishda o'rganishga imkon beradi. Ona tili savodxonligi metodikasi pedagogikada qo'llaniladigan tadqiqot metodlaridan foydalanadi. Kuzatish va tinglash, mulohaza qilish, ona tili savodxonligini o'qitish metodikasi sohasidagi eng muhim metodlardir. Pedagogik fan sifatida ona tili metodikasi didaktika bilan bog'langan. O'quv materialini tanlash va uni sinflar bo'yicha taqsimlashga bo'lgan talablar didaktik tamoyillar bilan izohlanadi. Ular xususiy metodik masalalarni hal qilishda, o'qitish metodlarini tanlashda, shuningdek o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini har xil ko'rinish va shakllarda tashkil qilishda ham yetakchidir. Metodik uslublarni faqat har bir o'quvchi psixologiyasini, yoshi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan xoldagina to'g'ri tanlash mumkin. Har qanday o'qitish metodining samaradorligini baholashda o'quvchilarning o'quv materialini qanchalik chuqur va to'liq o'zlashtirgani, ularda zarur bilim, tushuncha va tasavvurlar shakllangani

hamda tarbiyaviy natijalarning kuzatilishi asosiy mezon hisoblanadi. Ona tili savodxonligi fanini o'qitishda bu mezonlar o'ziga xoslik kasb etib, o'quvchilar atrof-muhit hodisalarini, ranglarni idrok etish va biologik jarayonlarni anglash orqali bu tushunchalarni to'g'ri ifoda etish, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyatini oshirish orqali bilimlarni mustahkamlaydi. ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni anglagani hamda tarbiyaviy natijalarning sezilishi muhim ahamiyatga ega. Faqat ana shunday ma'lumotlarga asoslanib, o'qitish metodining ta'lim va tarbiyadagi haqiqiy samarasi haqida aniq xulosa chiqarish mumkin."

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rang ifodalovchi birliklarni semantik klasterlar asosida o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'aviy birliklarni eslab qolish darajasini sezilarli oshiradi. Masalan, "oq rang" klasteriga "oppoq", "nimrang", "sutday", "oqish" kabi birliklarning birlashtirilishi rang ma'nosining daraja va emotsional tuslarini farqlash imkonini berdi. Raqamli lingvodidaktik muhitda quyidagi metodlar ayniqsa samarali bo'ldi; "Rangli klaster xaritasi" metodi o'quvchilar rang markazidan chiqadigan semantik tarmoqlar orqali yangi so'zlarni o'zlashtirdi; "Rang orqali gap tuzish" interaktiv mashqi klasterdagi birliklar yordamida og'zaki va yozma nutq rivojlantirildi; "Kayfiyatni rangda ifodalash" raqamli topshirig'i rang va emotsiya bog'liqligi asosida tafakkur faollashtirildi; Rangli vizual testlar ma'no farqlash va tanlash ko'nikmalari shakllantirildi. Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu metodlardan foydalangan sinflarda o'quvchilarning rang ifodalovchi birliklarni faol qo'llash ko'rsatkichi an'anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Tilni o'rgatish jarayoni orqali biz o'quvchi ongida til birliklari yordamida ifodalangan olam lisoniy manzarasini shakllantiramiz. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili savodxonligi fanida ranglarni o'rgatish modeli katta ahamiyatga ega, chunki bu bosqichda maktab o'quvchisi ranglarga oid so'z va ifodalarni o'zlashtirish bilan birga, ularning tabiiy va madaniy kontekstlarini ham anglay boshlaydi. Shu tariqa, o'quvchining ongida ranglarning lisoniy-kognitiv manzarasi shakllanadi bunda ranglar nafaqat tashqi obyektlarning xususiyati, balki milliy va individual xususiyatlarga ega voqelik sifatida idrok etiladi. O'quvchi ona tilidagi ranglarni qanchalik ko'p va chuqur o'rgansa, uning olam haqidagi idroki shunchalik keng, rang-barang va boy bo'ladi.

Ona tili darslarida o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchisining til ongida dunyoning rangli yoki lingvorangli manzarasini shakllantiradi. Bolaning lug'ati va nutqini turli tarkib va ta'limdagi rangli leksema bilan boyitadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida, o'tkazilgan tadqiqot va bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, til o'qitishning bu jihatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Bunday yondashuvning natijasi shundaki, maktab o'quvchilari rang belgilarining juda cheklangan tarkibiga ega bo'lib, odatda, nutqda va ijodiy ishlarda til tizimida mavjud bo'lgan kolorativlarni hosil qilish usullaridan foydalanmaydilar.

Olingan natijalar rang ifodalovchi birliklarni raqamli lingvodidaktik muhitda semantik klasterlar asosida o'rgatish lingvokognitiv jarayonlarni faollashtirishini ko'rsatadi. Bu yondashuv o'quvchilarda til birliklarini mexanik yodlash emas, balki ma'no aloqalari orqali ongli o'zlashtirishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rang, obraz va harakat orqali o'rganishga moyilligi raqamli muhitdagi klaster metodlarining samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni rang birliklari misolida ochib beradi hamda lingvodidaktikada kognitiv yondashuvni keng qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Rang leksikasini egallash o'quvchining ona tili savodxonligi darslarida ranglarni ifodalovchi so'zlar va atamalarni o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon til bilimining muhim qismi bo'lib, leksik darajadagi bilimlarning shakllanishini anglatadi. Rang leksikasi o'z ichiga rang nomlari, ranglar bilan bog'liq metafora va frazeologik birliklarni, shuningdek,

ranglarning madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini oladi. Nutqda rang-tus leksikasidan foydalana olish o'quvchining til orqali o'z fikrini ifoda etishda ranglarni tasvirllovchi so'z va ifodalarni to'g'ri, o'z vaqtida va maqsadga muvofiq ishlata olish qobiliyatidir. Bu ko'nikma tilning kommunikativ mezoniga to'liq javob beradi, ya'ni nutqning muloqot jarayonidagi samaradorligi va maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlaydi.

Ona tili savodxonligi faniga qo'yilgan minimal talablar uch bosqichni o'z ichiga oladi: boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tilini savodxonligi o'qish va yozish texnikalarini egallashi, o'qigan yoki yozgan matnni tushunishi hamda bildirilgan fikrni aniq va ravon yozma shaklda bayon eta olishi kerak. Ushbu talablarning amaliy bajarilishi uchun ta'lim jarayonida yangicha o'qitish tizimi va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda. Ona tili savodxonligini o'rganish jarayonida, xususan, rang bildiruvchi so'zlarni egallash muhim o'rin tutadi, chunki ranglar inson tafakkurida atrof-muhitni idrok etishda, fikr va hissiyotlarni ifodalashda, nutq madaniyatini shakllantirishda markaziy ahamiyatga ega. Ranglarning leksik birliklari o'quvchilarning ona tilidagi tasviri nutqini boyitib, muloqotni yanada ifodali va jonli qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rang bildiruvchi so'zlarni o'rgatishda, ular nafaqat rang nomlarini yodlash bilan cheklanmasdan, balki ranglarning madaniy, emotsional va kontekstual ma'nolarini ham anglashlari muhimdir. Bu esa o'quvchilarning til birliklarini chuqurroq egallashlariga, fikr va hissiyotlarini rang-barang ifoda etishlariga imkon yaratadi. Shu bois, rang leksikasini o'rgatishda interfaol metodlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida olam lingvorangli manzarasini ifodalovchi elektron-o'quv lug'atini, olam lingvorangli manzarasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish va amalga oshirishni, mantiqiy topshiriqlar hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish samarali natija berishini isbotladik. Zamonaviy o'qitish tizimida o'quvchilarga mustaqil va loyiha ishlari orqali ranglar haqida so'zlashish, yozma va og'zaki nutqda ranglarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirib, ularni ona tilida erkin va ravon muloqot qilishga, o'z fikrini aniq va boy ifoda etishga undaydi. Shuningdek, grammatik qoidalarni yodlashga majbur qilmasdan, o'quvchilarni sof o'zbek tilida erkin so'zlashishga va rang-tus birliklarini to'g'ri qo'llashga o'rgatish metodikalari ishlab chiqilmoqda. Bu metodik yondashuv ranglarni idrok etish va ifodalashni til o'rganish jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarning til madaniyatini, ijodiy fikrlashini hamda so'zlashuv madaniyatini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, rang bildiruvchi so'zlarni o'rganish nafaqat o'quvchilarning leksik bazasini kengaytiradi, balki ularning olamni lisoniy tasvirlash qobiliyatini oshiradi, ona tilida chuqurroq va boy ifoda etishga xizmat qiladi. Shu tarzda, rang leksikasini egallash ona tili savodxonligini o'qitish jarayonining muhim komponentiga aylanib, o'quvchilarni til va tafakkur jihatdan har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Rang ifodalovchi birliklar asosida shakllantirilgan semantik klasterlar bilan boyitilgan raqamli lingvodidaktik muhit metodlarini takomillashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy va kognitiv rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu metodlar lug'at boyligini kengaytirish, tafakkur moslashuvchanligini oshirish hamda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Mazkur yondashuvni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish ona tili ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda kelgusida rang birliklari asosida boshqa lingvosemantik modellarni ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Т.Иванова Развитие творческого мышления у детей начальной школы. Москва: Просвещение –2018.
2. A.Petrov Lingvorangi v pedagogicheskoy praktike: Metodicheskiye rekomendatsii. Sankt-Peterburg: Piter –2020.
3. N.Sidorova, Formirovaniye predstavleniy i tvorcheskogo myshleniya u mladshikh shkolnikov. Vestnik pedagogiki, 12(3), 45-52.
4. M.Rahimova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida madaniy ongni shakllantirish metodlari. T.: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti –2021.
5. L.S.Vygotsky Imagination and Creativity in Childhood. Cambridge: Harvard University Press.
6. J.Bruner The Culture of Education. Cambridge: Harvard University Press.
7. Э.Заёничковская, Инновационные педагогические технологии в начальной школе. Педагогические науки, 5(2), 12-20.